

CRR
JOURNAL
OF CARDIORESPIRATORY RESEARCH


ISSN 2181-0974
DOI 10.26739/2181-0974



Journal of **CARDIORESPIRATORY RESEARCH**

Special Issue 1.1

2022



АССОЦИАЦИЯ
ТЕРАПЕВТОВ
УЗБЕКИСТАНА



МИНИСТЕРСТВО
ЗДРАВООХРАНЕНИЯ
РЕСПУБЛИКИ УЗБЕКИСТАН



САМАРКАНДСКИЙ
ГОСУДАРСТВЕННЫЙ
МЕДИЦИНСКИЙ УНИВЕРСИТЕТ

ИНОВАЦИОННЫЕ ТЕХНОЛОГИИ В ЗДРАВООХРАНЕНИИ: НОВЫЕ ВОЗМОЖНОСТИ ДЛЯ ВНУТРЕННЕЙ МЕДИЦИНЫ

МАТЕРИАЛЫ

Международной научно-практической конференции
(Самарканд, 22 апрель 2022 г.)

Под редакцией
Ж.А. РИЗАЕВА

ТОМ I

Самарканд-2022

ОРГАНИЗАЦИОННЫЙ КОМИТЕТ КОНФЕРЕНЦИИ

Жасур Алимджанович РИЗАЕВ
доктор медицинских наук, профессор
(отв. редактор)

Шухрат Худайбердиевич ЗИЯДУЛЛАЕВ
доктор медицинских наук
(зам. отв. редактора)

РЕДАКЦИОННАЯ КОЛЛЕГИЯ:
Элеонора Негматовна ТАШКЕНБАЕВА
Наргиза Нурмаматовна АБДУЛЛАЕВА
Гуландом Зикриллаевна ШОДИКУЛОВА
Мухайё Бердикуловна ХОЛЖИГИТОВА
Заррина Бахтияровна БАБАМУРАДОВНА
Саодат Хабибовна ЯРМУХАММЕДОВА
Шоира Акбаровна ХУСИНОВА
Ирина Рубеновна АГАБАБЯН

Инновационные технологии в здравоохранении: новые возможности для внутренней медицины: Материалы международной научно-практической конференции (г. Самарканд, 22 апрель 2022 г.) / отв. ред. РИЗАЕВ Ж.А. - Самарканд: СамГМУ, 2022. – 736 с.

В сборнике собраны материалы, которые содержат статьи и тезисы докладов, представленных на международной научно-практической конференции «Инновационные технологии в здравоохранении: новые возможности для внутренней медицины», проведенной в СамГМУ 22 апрель 2022 г. Значительная часть материалов отражает современные проблемы внутренней медицины, посвященные поиску эффективных методов диагностики, лечения и профилактики заболеваний внутренних органов.

Представленные материалы будут интересны специалистам всех направлений внутренней медицины и широкому кругу читателей, интересующихся вопросами возникновения и профилактики основных заболеваний терапевтического профиля.

МИНИСТЕРСТВО ЗДРАВООХРАНЕНИЯ
РЕСПУБЛИКИ УЗБЕКИСТАН

ЖУРНАЛ КАРДИОРЕСПИРАТОРНЫХ ИССЛЕДОВАНИЙ

Главный редактор: Э.Н.ТАШКЕНБАЕВА

Учредитель:

Самаркандский государственный
медицинский институт

Tadqiqot.uz

Ежеквартальный
научно-практический
журнал



ISSN: 2181-0974

DOI: 10.26739/2181-0974



№SI-1.1
2022

ЖУРНАЛ КАРДИОРЕСПИРАТОРНЫХ ИССЛЕДОВАНИЙ

№SI-1.1 (2022) DOI <http://dx.doi.org/10.26739/2181-0974-2022-SI-1.1>

Главный редактор:

Ташкенбаева Элеонора Негматовна

доктор медицинских наук, проф. заведующая кафедрой внутренних болезней №2 Самаркандинского Государственного Медицинского института, председатель Ассоциации терапевтов Самаркандской области. <https://orcid.org/0000-0001-5705-4972>

Заместитель главного редактора:

Хайбулина Зарина Руслановна

доктор медицинских наук, руководитель отдела биохимии с группой микробиологии ГУ «РСНПМЦХ им. акад. В. Вахидова» <https://orcid.org/0000-0002-9942-2910>

Члены редакционной коллегии:

Аляви Анис Лютфуллаевич

академик АН РУз, доктор медицинских наук, профессор, Председатель Ассоциации Терапевтов Узбекистана, Советник директора Республиканского специализированного научно-практического центра терапии и медицинской реабилитации (Ташкент)
<https://orcid.org/0000-0002-0933-4993>

Бокерия Лео Антонович

академик РАН, доктор медицинских наук, профессор, Президент научного центра сердечно-сосудистой хирургии им. А.Н. Бакулева (Москва),
<https://orcid.org/0000-0002-6180-2619>

Курбанов Равшанбек Давлетович

академик АН РУз, доктор медицинских наук, профессор, Советник директора Республиканского специализированного научно-практического медицинского центра кардиологии (Ташкент)
<https://orcid.org/0000-0001-7309-2071>

Michał Tendera

профессор кафедры кардиологии Верхнесилезского кардиологического центра, Сileszkiy медицинский университет в Катовице, Польша (Польша)
<https://orcid.org/0000-0002-0812-6113>

Покушалов Евгений Анатольевич

доктор медицинских наук, профессор, заместитель генерального директора по науке и развитию сети клиник «Центр новых медицинских технологий» (ЦНМТ), (Новосибирск),
<https://orcid.org/0000-0002-2560-5167>

Акилов Хабибулла Атауллаевич

доктор медицинских наук, профессор, Директор Центра развития профессиональной квалификации медицинских работников (Ташкент)

Цурко Владимир Викторович

доктор медицинских наук, профессор Первого Московского государственного медицинского университета им. И.М. Сеченова (Москва)
<https://orcid.org/0000-0001-8040-3704>

Абдиева Гулнора Алиевна

ассистент кафедры внутренних болезней №2 Самаркандинского Медицинского Института
[\(ответственный секретарь\)](https://orcid.org/0000-0002-6980-6278)

Ризаев Жасур Алимджанович

доктор медицинских наук, профессор, Ректор Самаркандинского государственного медицинского института
<https://orcid.org/0000-0001-5468-9403>

Зиядуллаев Шухрат Худойбердиевич

доктор медицинских наук, доцент, проректор по научной работе и инновациям Самаркандинского Государственного медицинского института
<https://orcid.org/0000-0002-9309-3933>

Зуфаров Миржамол Мирумарович

доктор медицинских наук, профессор, руководитель отдела ГУ «РСНПМЦХ им. акад. В. Вахидова»
<https://orcid.org/0000-0003-4822-3193>

Ливерко Ирина Владимировна

доктор медицинских наук, профессор, заместитель директора по науке Республиканского специализированного научно-практического медицинского центра фтизиатрии и пульмонологии Республики Узбекистан (Ташкент)
<https://orcid.org/0000-0003-0059-9183>

Камилова Умида Кабировна

д.м.н., профессор, заместитель директора по научной работе Республиканского специализированного научно-практического медицинского центра терапии и медицинской реабилитации (Ташкент)
<https://orcid.org/0000-0002-1190-7391>

Тураев Феруз Фатхуллаевич

доктор медицинских наук, Директор Республиканского специализированного научно-практического медицинского центра эндокринологии имени академика Ю.Г. Туракулова

Сайдов Максуд Арифович

к.м.н., директор Самаркандинского областного отделения Республиканского специализированного научно-практического медицинского центра кардиологии (г. Самарканда)

Насирова Зарина Акбаровна

PhD, ассистент кафедры внутренних болезней №2 Самаркандинского Государственного Медицинского Института (ответственный секретарь)



УРОГИНЕКОЛОГИЯ

Аллазов С.А.

Самаркандский государственный медицинский университет
Самарканд, Узбекистан

ЭТИКА НАУЧНЫХ ИССЛЕДОВАНИЙ В ОБЛАСТИ УРОНЕФРОЛОГИИ

<http://dx.doi.org/10.26739/2181-0974-2022-SI-1-1>

АННОТАЦИЯ

В нормативно-правовых документах о науке научные исследования подразделяются на фундаментальные (точные) и прикладные науки, а также производственные группы в зависимости от вытекающих из них целей. Для обеспечения достоверности («чистоты») научной работы в этих областях, помимо методологии научных исследований, мы сочли необходимым привести некоторые исторические, современные и некоторые примеры из собственного опыта. Вопросы авторского права также рассматриваются в нормативных актах. Соавторство признается только при внесении конкретного творческого вклада в произведение. Предоставление технической помощи автору не является авторским правом. Согласно инструкции Гражданской палаты, «полное и частичное противоправное владение чужими произведениями (плагиат, мошенничество) является одним из нарушений авторских прав и наказывается лишением свободы на срок до одного года или штрафом».

Ключевые слова: Автор, юридические документы, авторское право.

Allazov S.A.

Samarkand State Medical University
Samarkand, UzbekistanSCIENTIFIC RESEARCH IN THE FIELD OF URO-NEPHROLOGY
ETHICS

ANNOTATION

In the normative and legal documents on science, scientific research is divided into fundamental (exact) and applied sciences, as well as production groups, depending on the goals arising from them. In order to ensure the reliability ("purity") of scientific work in these areas, in addition to the methodology of scientific research, we found it necessary to cite some historical, modern and some examples from our own experience. Copyright issues are also addressed in the regulations. Co-authorship is recognized only when a specific creative contribution is made to the work. Providing technical assistance to an author does not constitute copyright. According to the instructions of the Civil Chamber, "complete and partial unlawful possession of the works of strangers (plagiarism, fraud) is one of the copyright infringements and is punishable by up to one year in prison or a fine."

Keywords: Author, legal documents, copyright

Allazov S.A.

Samarkand davlat tibbiyot universiteti
Samarqand, O'zbekistonURO-NEFROLOGIYA SOHASIDA ILMIY IZLANISHLAR
ETIKASI



ANNOTATSIYA

Fan haqidagi normativ-huquqiy hujjatlarda, ilmiy izlanishlar, ulardan kelib chiqqan maqsadlarga qarab fundamental (aniq) va amaliy fanlar hamda ishlab chiqarish guruhlariiga bo‘linadi. Bu yunalishlarda bajarilgan ilmiy ishlarning ishonarlilagini (“tozaligini”) ta’minalash uchun ilmiy izlanishlarni metodologiyasidan tashqari ularni bajarishda etikaga ham amal qilish zarurligi haqida ba’zi tarixiy, zamonaviy va o‘zimizning tajribalarimizdan ba’zi lavhalarni keltirishni lozim topdik. Normativ hujjatlarda muallifdoshlik masalalari ham ko‘zda tutilgan. Muallifdoshlik asarga aniq bir ijodiy ulush qo‘shgandagina tan olinadi. Muallifga texnik yordam ko‘rsatish muallifdoshlik huquqini bermaydi. Fuqarolik ishlari bo‘yicha sud kollegiyasi ko‘rsatmalari bo‘yicha “begonalarning asarlarini to‘la va qisman noxuquqiy egallah (plagiat, qalloblik) mualliflik xuquqini buzilishlardan biri bo‘lib, bir yilgacha ozodlikdan mahrum qilish yoki jarima bilan jazolanadi”.

Kalit so’zi: Muallif, normativ-huquqiy hujjatlar, mualliflik huquqi

Dolzarblik. Fan haqidagi normativ-huquqiy hujjatlarda, ilmiy izlanishlar, ulardan kelib chiqqan maqsadlarga qarab fundamental (aniq) va amaliy fanlar hamda ishlab chiqarish guruhlariiga bo‘linadi.

Bu yunalishlarda bajarilgan ilmiy ishlarning ishonarlilagini (“tozaligini”) ta’minalash uchun ilmiy izlanishlarni metodologiyasidan tashqari ularni bajarishda etikaga ham amal qilish zarurligi haqida ba’zi tarixiy, zamonaviy va o‘zimizning tajribalarimizdan ba’zi lavhalarni keltirishni lozim topdik.

Mualliflar, kashfiyotchilar, ixtirochilar, ratsionalizatorlar huquqi qonun bilan himoyalananadi (Vavilov S.I., 1961; Mamiofa I.E., 1971; Skripko V.R., 1974 Lebin B.D. va xamm., 1982).

Huquqiy himoyaga taalluqli ob’ektlardan eng asosiysi – kashfiyotdir. Kashfiyot oldin ma’lum bo‘lмаган, lekin tabiiy olamda mavjud qonuniy xolat bo‘lib, u bilim darajasini tubdan o‘zgartiradi. Shu bilan birga, foydali qazilma boyliklarni izlab topish, geografik, arxeologik, paleontologik kashfiyotlar, ya’ni ekspeditsion xarakterdagi topilmalar davlat ro‘yxatiga kiritilmaydi. Xuddi shuningdek ijtimoiy fanlar sohasidagi yangiliklar ham kashfiyot hisoblanmaydi (Yefimov Ye.N., 1971, 1976). Yangi, tubdan farq qiladigan, xalq xo‘jaligi, davlat mudofasi ijtimoiy-madaniy sohalarda ijobjiy natija beradigan yangilik kashfiyot sifatida himoyalananadi (Ivich A., 1966). Ratsionalizatorlik takliflari esa muassasalarda, tashkilotlarda yangi va foydali hisoblangan texnik yechimlardir (Rassudovskiy V.A., 1975, Praxov B.G., Zenkin N.M, 1977; Ryasensev V.A., Zonkin N.M., 1977). Texnik ijodiyotda qo’shilgan shaxsiy ulush, birinchilik, prioritet masalalarining ahamiyati kattadir. Uning psixologik, etik va yuridik aspektlari mavjud (Komyushko M., 1979). Har qanday kashfiyotning ko‘zga ko‘rinadigan tomoni – uning yangiligidir. Butun dunyo bo‘yicha bu himoyaga muhtojlik masalasida birinchi kriteriyidir. Ilmiy yangilikka talab hajmi bo‘yicha 1) mahalliy; 2) dunyo miqyosida absolyut; va 3) dunyo miqyosida nisbiy bo‘lishi mumkin (Mamiofa I.E., 1974).

Mualliflik huquqi va prioritet bir-biridan ajralmas tushunchalardir (Staxeev L.Ye., 1972).

Muallif uch xil mualliflik huquqiga ega bo‘ladi: chop qilish, ko‘paytirish va tarqatish. Bunda yana boshqa uchta tushunchani inobatga olish kerak: 1) mualliflik – muallifning o‘zi yaratgan asarning muallifi ekanligi haqida yuridik imkoniyat; 2) mualliflik nomi – o‘zining nomi, taxallusi yoki anonim holda asarini chop qilish, ko‘paytirish va tarqatish huquqi; 3) asarning taxlikasizligi – muallifning tirikligida uning ijozatisiz asariga o‘zgartirish kiritishga hech kimning haqqi yo‘qligiga

Normativ hujjatlarda muallifdoshlik masalalari ham ko‘zda tutilgan. Muallifdoshlik asarga aniq bir ijodiy ulush qo‘shgandagina tan olinadi. Muallifga texnik yordam ko‘rsatish muallifdoshlik huquqini bermaydi. Fuqarolik ishlari bo‘yicha sud kollegiyasi ko‘rsatmalari bo‘yicha “begonalarning asarlarini to‘la va qisman noxuquqiy egallah (plagiat, qalloblik) mualliflik huquqini buzilishlardan biri bo‘lib, bir yilgacha ozodlikdan mahrum qilish yoki jarima bilan jazolanadi”.

Material va usullar. Endi bu yo‘nalishda e’tiborga molik ba’zi tarixiy va zamonaviy voqealari va hodisalarga to‘xtalib o’tsak. Ular fundamental va amaliy fanlar, xususan urologiya faniga ham dahldordir.


Barcha buyuk insonlar kabi Franklin (1-rasm) o‘zining nazariyalariga nisbatan muxolifning e’tirozlariga e’tibor bermas va umuman shaxsiy xizmatlarini himoya ham qilmas, ustiga-ustak hasadgo‘ylardan qutilishning yo‘lini qilmas edi (Dombrovskiy V., Shimulyan A., 1973). Shu bilan bir davrda differensial hisoblash yo‘li bilan dunyo tortishish qonunini Gukka



1-rasm. Bendjamin Franklin



2-rasm. Robert Guk




3-rasm. Isaak Nyuton

(2-rasm) bog‘liq bo‘limgan holda o‘zi ixtiro qilganini isbot qilish I.Nyutonning (3-rasm) butun umrini yeb bitirdi.

Isaak Nyutonning optika sohasidagi ilmiy izlanishlari ayniqsa janjalli, ko‘p bahslarga sabab bo‘lgan.

Bu fan bilan u talabalik yillaridan boshlab qiziqqan. Optika sohasiga bag‘ishlangan birinchi ilmiy ma’ruzasini 1672 yilda London qirollik jamiyatida qilib, nur va rangning yangi korpuskulyar gipotezasini taklif qilganida uning fikriga R.Guk qarshi chiqib, bu nazariyani o‘zi birinchi bo‘lib yaratganlik prioritetini talab qilib chiqqan. Ehtiroslarga berilgan Nyuton bu asarini tashlab qo‘yib, R.Guk dunyodan o‘tgach, bir yildan so‘nggina chop ettirgan.

Yana bir buyuk olim A.Eynshteyn (4-rasm) – nisbiylik nazariyasi haqida 1905 yilda maqola chop etadi. Xuddi shu 1905 yili A.Puankare (5-rasm) “Elektron dinamikasi haqida” degan maqola yozadi va 1906 yili chop etadi. U A.Eynshteyndan mustaqil ravishda nisbiylik postulatini yaratadi (BSE, 21 том, 1975). Albatta Puankare na yozuvchi va na davlat yoki jamoat arbobi, bor-yo‘g‘i buyuk olim edi. Dunyoning qaysi burchagida “qaysi buyuk olimni bilasiz” deb so‘rang, Arximed, Nyuton, Mendeleev, Eynshteyn, javob olasiz, lekin hech kim Puankareni eslamaydi. Garchi fan sohasida Puankarening xizmatlari o‘sha olimlardan ortiq-ku kam emas. Bu hammasi Puankarega



4-rasm. Albert Eynshteyn

5-rasm. Anri Puankare

qolganda avtoritet va prioritet masalalarida tarixiyadolatsizlik tufayli edi. O‘z davrida uni genial olim hisoblashgan. Lekin uning bir kashfiyoti bo‘yicha nohaqlik haligacha saqlanib qolmoqda. Gap shundaki nisbiylik qonuning birinchi va asosiy yaratuvchisi aynan Puankaredir. A.Eynshteynchi? Eynshteyn ushbu qonunning asoschilaridan biri, hatto mashhur $E=mc^2$ formulasining muallifi bo‘lsada, u bu yangi qonunning yagona egasi emas (Smorodinskiy Ya.A., 1978). Puankare nisbiylik prinsiplari bilan 1890 yillardan boshlab shug‘ullangan, bir necha kitob chiqargan, ma’ruzalar o‘qigan. A.Eynshteyn esa 1905 yilgacha bironqa chiqish qilmagan, fizikaning umuman boshqa muammolari bilan shug‘ullangan; to‘satdan nisbiylik nazariyasi asoslariga bag‘ishlangan maqola chop qiladi. Haligacha ilm-fan tarixchilari



“Eynshteyn Puankare maqolalarini o‘qiganmi?” deb babs qilishadi. Eynshteynnning o‘zi “xabarim yo‘q edi” deb javob berib kelgan. Faqat qarigan chog‘ida vijdon qiynay boshlagan shekilli, shunchaki “Nisbiylik nazariyasini yaratishda Lorens va Puankarelarning xizmatlari


bor” deb eslab o‘tgan. Bu baxslardan Puankarenning o‘zi iztirob chekkanmi, yo‘qmi endi fol ochishdan foyda yuq, lekin u bag‘ri keng bo‘lganligi aniq. Hatto o‘nlab kashfiyotlarini boshqa ismlar bilan atagan: Betti sonlari, Kleyn guruhi, Puasson turg‘unligi va boshq. U bir bor Eynshteynnning ishga joylashishi uchun qo‘llab-quvvatlab iltimosnama ham yozgan ekan. Endi bugunga kelib nisbiylik nazariyasining yaratuvchilari Lorens, Puankare va Eynshteyn bo‘lib, bu qatorda Puankarenning xizmati, ulushi hammasidan ko‘proqdir deb arz qilish zarur emasdir, ammo bu haqda eslatib o‘tish adolatdan bo‘ladi (A.A’zam, 2016).

Endi biologiya soxasida. Darvinizm, organik dunyoning evolyusion materialistik nazariyasi Ch.Darvin dunyoqarashi mahsuli (BSE, 7 tom, 1956). Evolyusion nazariyani ishlab chiqishni 1837 yilda boshlab, Ch.Darvin 1858 yildagina Linney jamiyatni yig‘ilishida tabiiy turlanish haqida ma’ruza qildi. O‘scha yig‘ilishda A.Uolles ham ma’ruza o‘qidi, uning fikrlari Darvinniki bilan bir xil edi. Ikkala ma’ruza ham jaimyat jurnalida birga chop etildi, lekin Uolles evolyusion nazariyani Darvin o‘zidan oldinroq, chuqur va to‘laroq ishlab chiqqagan deb, ustiga-ustak o‘zining 1889 yilda nashr etilgan aossiy ilmiy ishini “Darvnizm” deb atab Darwinning prioritetini ta’kidlaydi (BSE, 44 t., 1956). Darvoke kizig‘i shundaki bu ikki buyuk olimlarning bir xil bag‘ri kengligi, ularning tashqi qiyofalarining o‘xshashligida ham o‘z isbotini topgan (6-rasm).

Natijalar va muhokama. Ilm-fan sohasidagi bunday bahslar, munozaralar tibbiyotda, xususan urologiyada ham kam emas.

Ma’lumki urologiya amaliyotida keng tarqalgan adenomektomiya operatsiyasi qovuq (Fedorov S.A., 1909; Fuller A.O., 1905; Freyer P.S., 1901), qov orti (Lidskiy A.T., 1923; Millin N., 1945), oraliq (Guthrie G.J., 1834), ishiorektal (Voelker Fr., 1911), to‘g‘ri ichak (Saposhkov K.P., 1926) orqali amalga oshiriladi (Tkachuk V.N., 2011).

Barchaning fikricha Rossiyada adenomektomiya operatsiyasini birinchi bo‘lib, S.P. Fedorov (7-rasm) bajargan (1909), uning bosqichlari 9,10,11,12-rasmlarda keltirilgan.



Чарлз Дарвин

Альфред Рассел Уоллес

6-rasm.

Qo‘yidagi ma’lumotlarning to‘liq ishonarligiga kafolat berolmagan holda, ta’kidlash kerakki S.S. Yudinning (8-rasm) tadiqlashicha bu operatsiyani S.P. Fedorovdan bir yil oldin G.L. Gar “Moszdrav Zaxarino xirurgiya sanatoriyasida amalga oshirgan”. Bu haqda “Freyer bo‘yicha prostatektomiya” nomi bilan ” “N.A. Velyaminov xirurgik arxivida” 1907 yoki 1908 yilda chop etilgan (13-rasm). O‘zining nozik iboralari bilan buyuk xirurg S.S. Yudin G.L. Garga quyidagicha ta’rif beradi: “Haddin qo‘pol va o‘ylab o‘tirmay operatsiya qilardi. Lekin haqiqat yuzasidan ta’kidlash kerakki, Gar qiyin va ma’suliyatli





operatsiyalarni bo'yniga olar va muvaffaqqiyat bilan amalga oshirardi". "Velyaminov xirurgik arxivini"ni varaqlab, uning bir nechta chop etgan ishlarini topdim. Uning Freyer usulidagi prostatektomiya, oshqozon raki bo'yicha rezeksiya kabi qator operatsiyalari hisobotini o'qib hayratga qolmay bo'ladimi; bu hisobotlar 1907 yoki 1908 yillarda chop etilgan edi shekilli".





7-rasm. S.P. Fedorov (1869-1936)

8-rasm. S.S. Yudin (1891-1954)



9-rasm. Qovuqni ochish (D.P. Chuxrienko, A.V. Lyulko, 1972)

10-rasm. Adenoma tugunini ajratish va olib tashlash (N.A. Lopatkin, I.P. Shevsov, 1986)




11-rasm. Adenoma o'rnini tampon
qilish yo'li bilan gemostaz13-rasm. N.A. Velyaminov
(1855-1920)

Jurnalning nashr qilinishi redaktor hisobiga bo'lib, bir bor qiyinchilik tug'ilganda A.P. Chexov (14-rasm) ham homiylik qilgan: "Jurnalni qutqarish uchun men har kimga qulluq qilishga har qanday daxlizza kutishga tayyorman, yaxshi xirurgik jurnalni qutqarish 20 minglab omadli operatsiyalar kabi foydalidir". Jurnalning qaysidir bir tomda Rossiyada bиринчи bo'lib bajarilgan qovuq orqali ochiq adenomektomiya haqidagi ilmiy hisoboti ham chop etilgan edi.

Afsuski, operatsiyasining prioritetini G.L. Gar o'ylamagandir ham. Zero, hayotda ko'p bo'lganidek yer yuzidagi oddiy insonlar yorug' nurli buyuklar soyasida qolib ketadi. Ko'ngilni to'ldiradigani shuki, kech bo'lsada, bunday tarixiy voqealarga aniqlik kiritib, esdan chiqqan yoki o'z vaqtida e'tibor berilmagan prioritet holatlarni ilm-fan ahliga yetkazishdir.

Qo'yida ushbu maqola mualifi darsligiga nisbatan sodir bo'lган 100 % plagiatlik holatini keltiramiz. 2008 yilda nashr etilgan S.A. Allazovning "Urologiya" darsligi "Sano-standart" nashriyoti tomonidan 2015 yilda chet el olimlari Pol Bregg va Patritsiya Bregglarning nomida chop etilgan (rasmlarga va nashriyotga yuborilgan xatga qaralsin).

14-rasm. A.P. Chexov
(1860-1904)

References / Список литературы / Iqtiboslar

1. Аллазов С.А. Урология. Дарслик. Самарқанд, 2008: 132 бет.
2. Аллазов С.А. Лагохилус в урологической практике. Самарқанд 2015; 38 б.
3. Аюпов О. (тузувчи). Дунё. Сиёсат. Жамият. 6-нашри. Гулистан. 2015;224 б.
4. Брегг Пол, Брегг Патриция. Урология хасталиклари ва даволаниш чоралари. Нашрга Оқилов Ш. тайёрлаган. Тошкент: Sano-Standart, 2015. – 128 б. (Аллазов С. Урология. Дарслик. Самарқанд. 2008. 132 б. китобидан 100% кўчирилган plagiat).
5. Диагностические и лечебные стандарты в экстренной урологии. Под ред. проф. Аллазова С.А. Изд. 2-ое дополненное. Самарқанд, 2015. 37 стр.
6. Ишмухamedов Р., Юлдашев М. Таълим ва тарбияда инновацион педагогик технологиялар. Тошкент, 2013: 278 бет.
7. Ткачук В.Н. Знаменательные и юбилейные даты в истории урологии и пограничных областей в 2011 г. Урология 2011; 1: 67-68.
8. «Урология». Учебник под редакцией проф. Д.Ю. Пушкия. Москва. М, 2013.
9. Ёкубов Собиржон. Илоҳий мувозанат бузилганда. Адабиёт олим Раҳмон Қўчқор билан сухбат. Тафаккур 2020; 2: 4-15.
10. Anderson SM, Helberg SB. Chart-based, case-based learning. S D Med 2009. 60(10): 391.



11. Blewett E.L., Kisamore J.L. Evaluation of an interactive, case-based review session in teaching medical microbiology. *BMC Med Educ* 2009; 9:56.
12. Entwistle N. Teaching for Understanding at University. Deep approaches and distinctive ways of thinking. Basingstoke: Palgrave Macmillan. 2009.
13. Harvard Business School. Available from.2011.
14. Popjay J, Baldwin S, Arai L, Britten N, Petticrew M, Rodgers M, Sowden A. Methods Briefing 22. Narrative synthesis in systematic reviews Available from www.ccsr.ac.uk
15. Queen's University. Last accessed July 2011. Available from